

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdualil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSİYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSİYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSİYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	



TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI

Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sulaymanovsamandarboy@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasining bank likvidligiga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda depozit bazasining hajmi va tarkibi, jismoniy hamda yuridik shaxslar kesimidagi o'zgarishlari, milliy va chet el valyutasida shakllanishi, shuningdek ushbu jarayonlarning likvidlik ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, depozit bazasining kengayishi likvidlikni avtomatik ravishda mustahkamlamaydi, biroq resurslar tarkibi barqaror va diversifikatsiyalashgan bo'lgan sharoitda LCR, NSFR hamda joriy likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilanishi mumkin. Shuningdek, retail depozitlar ulushini oshirish, muddatli resurslar bazasini kengaytirish va depozitlar tarkibini muvozanatlashtirish zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: depozit siyosati, depozit bazasi, bank likvidligi, muddatli depozitlar, talab qilib olinguncha depozitlar, retail depozitlar, LCR, NSFR, likvidlik riski, tijorat banklari.

Abstract. This article examines the impact of commercial banks' deposit policy and deposit base dynamics on bank liquidity. The study analyzes the volume and structure of the deposit base, changes across household and corporate segments, its composition in domestic and foreign currency, as well as the impact of these processes on liquidity indicators. The findings indicate that deposit growth alone does not automatically strengthen liquidity; however, when the funding structure is stable and diversified, LCR, NSFR, and current liquidity indicators may improve. The study also substantiates the need to expand retail deposits, increase the share of term funding, and balance the structure of the deposit base.

Keywords: deposit policy, deposit base, bank liquidity, term deposits, demand deposits, retail deposits, LCR, NSFR, liquidity risk, commercial banks.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние депозитной политики коммерческих банков и динамики депозитной базы на банковскую ликвидность. В работе проанализированы объем и структура депозитной базы, изменения по сегментам физических и юридических лиц, формирование в национальной и иностранной валюте, а также влияние этих процессов на показатели ликвидности. Результаты показали, что рост депозитной базы сам по себе не гарантирует укрепления ликвидности, однако при устойчивой и диверсифицированной структуре ресурсов возможно улучшение показателей LCR, NSFR и текущей ликвидности. Обоснована необходимость расширения розничных депозитов, увеличения доли срочных ресурсов и сбалансирования структуры депозитной базы.

Ключевые слова: депозитная политика, депозитная база, банковская ликвидность, срочные депозиты, депозиты до востребования, розничные депозиты, LCR, NSFR, риск ликвидности, коммерческие банки.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi ko'p jihatdan ularning resurs bazasi sifati va ushbu resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Bank amaliyotida aktivlar daromadliligi, kreditlash hajmi va bozor ulushi muhim ko'rsatkichlar sifatida qaralsa-da, bankning joriy va istiqboldagi to'lov qobiliyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri uning depozit bazasidir. Chunki depozitlar tijorat banklari uchun eng yirik va nisbatan arzon moliyalashtirish manbai bo'lib, ular bank likvidligi, resurslar muddat tuzilmasi hamda aktiv operatsiyalar ko'lamining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli depozit siyosatini bank faoliyatining alohida yo'nalishi sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi strategik boshqaruv mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlarda bank likvidligi ko'pincha aktivlarning pulga aylanish darajasi, yuqori likvidli vositalar hajmi yoki prudensial ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Biroq bank likvidligining passivlar tomoni, ya'ni jalb qilingan mablag'larning barqarorligi, muddat bo'yicha tuzilishi va mijozlar xulq-atvoriga sezgirliigi ham mazkur jarayonning ajralmas tarkibiy qismidir. Depozit bazasining shakllanish xususiyatlari bankning joriy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyatini, likvidlik tamponining mustahkamligini hamda resurslarni uzoq



muddatli aktiv operatsiyalarga nisbatan xavfsiz yo'naltirish salohiyatini belgilaydi. Demak, bank likvidligini to'liq anglash uchun uni faqat aktivlar sifati orqali emas, balki depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasi bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy bank amaliyotida depozitlar hajmining o'sishi har doim ham resurs bazasining sifat jihatidan mustahkamlanganini anglatavermaydi. Agar jalb qilingan mablag'lar asosan qisqa muddatli, yuqori foizli yoki bir nechta yirik mijozlarga bog'liq shaklda to'plangan bo'lsa, bu holat bankning likvidlik pozitsiyasiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha, depozit bazasi diversifikatsiyalashgan, muddatli va nisbatan barqaror manbalar hisobidan shakllangan bo'lsa, bank likvidlik riskiga nisbatan ancha barqaror bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, depozit siyosatining mazmuni faqat omonatlar hajmini oshirish bilan cheklanmay, balki bank uchun barqaror, boshqariladigan va likvidlikni qo'llab-quvvatlaydigan resurs bazasini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda moliya bozorlarida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, raqamli bank xizmatlarining kengayishi, mijozlar xatti-harakatlarining o'zgarishi va resurslar bozorida raqobatning kuchayishi depozit bazasi barqarorligini yangi sharoitda baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, talab qilib olinguncha mablag'larning yuqori ulushi, muddatli depozitlar bo'yicha foiz xarajatlarining ortishi, yirik depozitorlar konsentratsiyasi va omonatlar oqimining tez o'zgaruvchanligi bank likvidligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun depozit bazasi dinamikasini oddiy miqdoriy o'sish sifatida emas, balki likvidlik sifati, moliyalashtirish barqarorligi va aktiv-passivlar muvozanatiga ta'sir qiluvchi muhim tizimli omil sifatida tadqiq etish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida bank tizimining samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish, ilg'or tartibga solish tamoyillarini joriy etish, shuningdek, tijorat banklarining kapital yetariligi va likvidlik holatini mustahkamlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan¹. Mazkur vazifalar banklar resurs bazasining sifat jihatidan mustahkamlanishi, moliyalashtirish manbalarining barqarorlashuvi va likvidlikni passiv operatsiyalar orqali boshqarish samaradorligini oshirish masalalarini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantiradi. Chunki bank tizimi barqarorligi nafaqat aktiv operatsiyalar hajmi, balki jalb qilingan mablag'larning qanchalik ishonchli, uzoq muddatli va boshqariladigan shakllanganiga ham bevosita bog'liqdir.

Ushbu mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, depozit siyosati va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha bilvosita va kechikuvchi ta'sir shaklida namoyon bo'ladi. Depozit bazasining tarkibiy zaiflashuvi darhol likvidlik inqiroziga olib kelmasligi mumkin, biroq vaqt o'tishi bilan qayta moliyalashtirish ehtiyojining ortishi, foiz xarajatlarining oshishi, likvid aktivlarning bosqichma-bosqich kamayishi va majburiyatlarni bajarish elastikligining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois depozit siyosatini baholashda faqat joriy depozitlar hajmi emas, balki ularning muddat tuzilmasi, narxi, diversifikatsiya darajasi va xulq-atvor barqarorligi ham inobatga olinishi lozim.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklari depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasining bank likvidligiga ta'sirini aniqlash, ushbu ta'sirning asosiy iqtisodiy mexanizmlarini ochib berish hamda bank amaliyoti uchun ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida depozitlar hajmi va tarkibining o'zgarishi, talab qilib olinguncha va muddatli depozitlar nisbati, resurs bazasi barqarorligi, likvidlik ko'rsatkichlari hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, depozit siyosatini takomillashtirish orqali bank likvidligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari asoslab beriladi.

Umuman olganda, mazkur mavzu tijorat banklarida likvidlikni boshqarish masalasini resurs bazasi sifati, depozitlar tuzilmasi va passiv operatsiyalar samaradorligi nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari banklarda depozit siyosatini qayta ko'rib chiqish, barqaror moliyalashtirish manbalari ulushini oshirish, likvidlik riskini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasi bank likvidligini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida tadqiq etiladi. Chunki bank likvidligi faqat aktivlarning pulga aylanish tezligi bilan emas, balki majburiyatlarning qanchalik barqaror, diversifikatsiyalashgan va xulq-atvor jihatidan prognoz qilinadigan tarzda shakllanganiga ham bog'liqdir. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda depozitlar hajmi alohida ko'rsatkich sifatida emas, balki ularning muddati, qiymati, konsentratsiyasi, mijozlar xatti-harakati va moliyalashtirish sifati bilan birgalikda o'rganiladi.

Depozitlarning bank barqarorligidagi o'rnini nazariy jihatdan tushuntirishda C. Calomiris va C. Kahnning yondashuvi muhim hisoblanadi. Ular talab qilib olinadigan majburiyatlar bank faoliyatida nafaqat moliyalashtirish

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

manbai, balki bozor intizomini shakllantiruvchi vosita ekanini ko'rsatadi [2]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqadiki, depozit bazasining sifati yetarlicha mustahkam bo'lmagan sharoitda omonatchilar xatti-harakati bank likvidligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, depozit siyosati bankning shunchaki resurs jalb qilish faoliyati emas, balki likvidlik xavfini cheklash mexanizmi sifatida ham qaralishi lozim.

R. Hannan va A. Berger depozitlar bozorida foiz stavkalari shakllanishi va ularning moslashuv xususiyatlarini o'rganib, banklarning depozit siyosati narx signallari orqali resurslar oqimiga ta'sir qilishini ko'rsatadi [3]. Ularning qarashlariga ko'ra, depozit foizlari bo'yicha qarorlar bankka qisqa muddatda ko'proq resurs jalb qilish imkonini bersa-da, uzoq muddatda bu resurslarning qiymati va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois depozit siyosatini keskin foiz raqobati asosida emas, balki barqaror moliyalashtirish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

E. Gatev va P. Strahan banklarning likvidlik riskini boshqarishda depozit bazasining alohida ustunlik berishini asoslagan. Ularning tadqiqotlarida ayrim stress holatlarida banklarga depozit oqimi ortishi mumkinligi, ya'ni banklar kredit liniyalari bo'yicha majburiyatlar kuchaygan vaziyatlarda ham depozitlar orqali likvidlik bosimini yumshatish imkoniyatiga ega bo'lishi ko'rsatiladi [4]. Bu yondashuv depozit bazasining oddiy hajmi emas, balki uning xulq-atvor barqarorligi bank likvidligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

I. Drechsler, A. Savov va P. Schnabl banklar faoliyatida depozitlar kanalining ahamiyatini o'rganib, foiz siyosati va depozit bazasi o'rtasidagi bog'liqlik bank moliyalashtirish barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatishini tadqiq etgan [5]. Ularning yondashuviga ko'ra, depozitlar banklar uchun faqat passiv operatsiyalar manbai emas, balki foiz siyosati, moliyalashtirish qiymati va likvidlik salohiyati o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi omildir. Bu esa depozit bazasi dinamikasini bank likvidligini boshqarish jarayonidan ajratib bo'lmasligini anglatadi.

R. Iyer va M. Puri omonatchilar xatti-harakatini tahlil qilib, bank likvidligiga ta'sir ko'pincha mijozlarning axborotga bo'lgan reaksiyasi, ishonch darajasi va ommaviy xulq-atvor bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi [6]. Ularning tadqiqotlari depozit bazasi barqarorligi faqat statistik ko'rsatkich emas, balki xulq-atvor kategoriyasi ham ekanini asoslaydi. Shu ma'noda depozit siyosati bank uchun nafaqat foiz stavkalari siyosati, balki mijozlar ishonchini saqlash va reputatsion xavflarni boshqarish vositasi sifatida ham qaraladi.

M. Egan, A. Hortaçsu va G. Matvos depozitlar bozorida raqobat va moliyaviy beqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, omonatlar uchun haddan tashqari keskin raqobat ayrim holatlarda bankning moliyalashtirish sifati va barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi [7]. Ularning qarashlari shuni anglatadiki, depozit bazasini kengaytirishning o'zi yetarli emas, balki uning barqarorligi va iqtisodiy jihatdan maqbulligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda mazkur masala bank likvidligi mohiyati, uni tartibga solish instrumentlari va monetar sharoitning bank resurs bazasiga ta'siri orqali yoritilgan.

Xususan, Sh. Z. Abdullayeva bank likvidligini zarurat tug'ilganda va yetarli miqdorda likvid aktivlarni shakllantirish orqali joriy hamda kelajakdagi majburiyatlarni bajarish qobiliyati sifatida talqin qiladi hamda likvidlik ko'rsatkichlarini obyekt, manbasi, vaqtinchalik xususiyati va to'lov vositalarining turi bo'yicha tasniflaydi [8]. Ushbu nazariy yondashuv depozit siyosatini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O. Sattarov tijorat banklari likvidligini boshqarish masalasini amaliy nuqtai nazardan o'rganib, overnight kreditlar, REPO operatsiyalari, mijozlar depozitlarini boshqarish, likvidlik prognoz modeli va likvidlik koeffitsiyentlarini batafsil tahlil qiladi hamda O'zbekiston tijorat banklari uchun turli muddatli likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyatini taklif etadi [9]. Uning fikricha, banklar ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish va naqd pul zaxiralari optimal darajada saqlashi zarur.

M. Kurbonbekova pul-kredit siyosati instrumentlaridan samarali foydalanish ichki iqtisodiyotda narx barqarorligini ta'minlash va bank tizimi likvidligi hamda barqarorligini tartibga solishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ayniqsa, majburiy zaxira siyosatining tijorat banklari faoliyatiga tez va sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turishi qayd etiladi [10]. Ushbu yondashuv depozit siyosatini umumiy monetar muhit va Markaziy bank siyosati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, mahalliy olimlar qarashlarida ham depozit siyosati bank likvidligiga ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida turli yondashuvlarda talqin etiladi: Abdullayeva yondashuvida u nazariy asos sifatida, Sattarovda amaliy boshqaruv instrumenti sifatida, Kurbonbekovada esa monetar siyosat bilan bog'liq tizimli omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Fikrimizcha, mavjud xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari depozit siyosatini faqat omonatlar hajmini oshirishga qaratilgan vosita sifatida baholash yetarli emas. Depozit bazasi bank likvidligiga faqat miqdor orqali emas, balki uning tarkibi, muddat barqarorligi, foiz xarajatlari, mijozlar xulq-atvori, monetar sharoit va moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi orqali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli depozit siyosati va bank likvidligi o'rtasidagi bog'liqlikni dinamik, xulq-atvor, tarkibiy va institutsional yondashuv asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tijorat banklari depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasining bank likvidligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda dinamik tahlil, grafik tahlil va tavsifiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida depozit bazasi hajmi va tarkibining yillar davomida o'zgarishi kuzatilib, ushbu o'zgarishlarning bank likvidligiga ta'siri mantiqiy izchillik asosida yoritildi.

Tadqiqotning nazariy asosini bank likvidligi, depozit siyosati, resurs bazasi barqarorligi, majburiyatlar tarkibi hamda prudensial likvidlik ko'rsatkichlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida bank likvidligi faqat mavjud naqd mablag'lar hajmi orqali emas, balki depozitlarning muddati, tarkibi, barqarorligi, talab qilib olinguncha va muddatli depozitlar nisbati hamda joriy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkoniyati bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Empirik tahlilda bank tizimiga oid ochiq statistik ma'lumotlar, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bankning rasmiy ko'rsatkichlari hamda likvidlikka oid prudensial me'yorlardan foydalanildi. Asosiy e'tibor depozit bazasi hajmi va tarkibining yillar kesimidagi o'zgarishiga hamda ushbu o'zgarishlarning likvidlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligiga qaratildi.


Tadqiqotda asosiy usul sifatida dinamik tahlil qo'llanildi. Ushbu usul yordamida depozit bazasining turli yillardagi o'zgarish tendensiyasi tahlil qilinib, uning vaqt o'tishi bilan bank likvidligiga qanday ta'sir ko'rsatishi izohlandi. Grafik tahlil yordamida depozitlar va likvidlik ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi dinamikasi vizual ko'rinishda aks ettirildi. Tavsifiy tahlil asosida esa depozit siyosatining bank likvidligiga ta'siri iqtisodiy mantiq va amaliy kuzatuvlar asosida tushuntirildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya tijorat banklarida depozit bazasi dinamikasining likvidlik ko'rsatkichlari bilan aloqadorligini, depozit siyosatining bank moliyaviy barqarorligiga ta'sirini hamda resurs bazasi sifati va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniq va tizimli tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasi bank likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Depozit bazasining kengayishi bank resurslari hajmini oshiradi, biroq uning likvidlikka real ta'siri ushbu resurslarning qaysi segmentlar hisobidan shakllangani, qaysi valyutada jalb etilgani va ularning qanchalik barqaror ekaniga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, depozitlar hajmining oddiy o'sishi emas, balki depozit bazasining tarkibiy sifati bank likvidligini baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot doirasida asosiy e'tibor depozit bazasining jismoniy va yuridik shaxslar kesimidagi dinamikasi, depozitlar qoldig'ining milliy va chet el valyutasidagi tarkibi hamda ushbu o'zgarishlarning asosiy likvidlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini ochib berishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024–2026-yillar davomida tijorat banklari depozit bazasi sezilarli sur'atlarda kengaygan va bu jarayon bank likvidligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan birga kechgan.




1-rasm. Tijorat banklarida depozit bazasining jismoniy va yuridik shaxslar kesimidagi dinamikasi (mlrd. so'm) [11]

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar depozitlari 2024-yil 1-yanvar holatidagi 86 858 mlrd so'mdan 2025-yilda 129 415 mlrd so'mga, 2026-yilda esa 197 701 mlrd so'mga yetgan. Demak, ikki yil davomida ushbu segment 110 843 mlrd so'mga yoki 127,6 foizga oshgan. Yuridik shaxslar depozitlari esa 310 176 mlrd so'mdan 421 401 mlrd so'mga, so'ngra 675 012 mlrd so'mga ko'tarilib, jami 364 836 mlrd so'mga yoki 117,6 foizga ortgan. Umumiy hisobda depozit bazasi 397 034 mlrd so'mdan 872 713 mlrd so'mga yetib, 475 679 mlrd so'mga yoki qariyb 119,8 foizga kengaygan. Ushbu dinamika bank tizimida resurs bazasining jadal shakllanib borayotganini ko'rsatadi.


Shu bilan birga, depozit bazasining tarkibiy tahlili yuridik shaxslar mablag'lari ustun mavqega ega ekanini ko'rsatadi. 2024-yilda jami depozit bazasida yuridik shaxslar hissasi qariyb 78 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda ham u 77 foiz atrofida saqlanib qolgan. Bu holat banklar resurs bazasi hajm jihatidan yirik va tez shakllanuvchi manbalar bilan ta'minlanayotganini bildiradi. Biroq bunday tarkib likvidlik nuqtai nazaridan ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi, chunki yuridik shaxslar depozitlari odatda yirik summali va nisbatan sezgir manba bo'lib, ularning harakati likvidlikka tezroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayni paytda jismoniy shaxslar depozitlarining 127,6 foizga o'sishi banklar uchun nisbatan barqarorroq retail resurslar ulushi ham kengayib borayotganini anglatadi.

2-rasm ma'lumotlari depozitlar qoldig'ining valyuta tarkibida milliy valyutadagi mablag'lar ustun mavqega ega ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy valyutadagi yuridik shaxslar depozitlari depozit bazasining asosiy qismini shakllantirayotgani kuzatiladi. Bu holat banklar resurs bazasining ichki valyuta segmentida kengayib borayotganini, demak, moliyalashtirishning valyuta riskiga nisbatan barqarorroq manbalarga tayanayotganini bildiradi. Chet el valyutasidagi depozitlar ham mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy tarkibdagi ulushi nisbatan past ekani ko'rinadi. Shu sababli depozit bazasining milliy valyutadagi segmentlar hisobidan kengayishi likvidlikni boshqarish nuqtai nazaridan ijobiy omil sifatida baholanishi mumkin.



2-rasm. Tijorat banklari depozitlari qoldig'ining milliy va chet el valyutasida shakllanish tarkibi dinamikasi (mlrd. so'm) [11]

Depozit bazasidagi ushbu o'sish 3-rasmda aks etgan likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 2024-yildagi 14,9 foizdan 2025-yilda 17,3 foizga, 2026-yilda esa 21,1 foizga yetgan. Bu bank balansida tezkor realizatsiya qilinadigan aktivlar ulushi 6,2 foiz bandga oshganini anglatadi. Mazkur holat depozit bazasi kengaygan sharoitda banklar jalb qilingan resurslarni to'liq uzoq muddatli aktivlarga yo'naltirib yubormaganini, aksincha, likvid aktivlar buferini ham parallel ravishda kuchaytirganini ko'rsatadi.



3-rasm. Tijorat banklarida asosiy likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasi va depozit bazasining likvidlikka ta'siri (foizda) [11]

Likvidlikni qoplash me'yori (LCR) ham tahlil qilinayotgan davrda izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 164,8 foizni, 2025-yilda 193,8 foizni va 2026-yilda 207,5 foizni tashkil etgan. Demak, ikki yil davomida LCR 42,7 foiz bandga yaxshilangan. Bu banklarning qisqa muddatli stress holatlarida kutilayotgan sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar hisobidan qoplash imkoniyati sezilarli darajada mustahkamlanganini bildiradi. Depozit bazasi jadal o'sgan sharoitda LCRning pasaymasdan, aksincha, oshib borishi depozit siyosatining likvidlikka salbiy emas, balki qo'llab-quvvatlovchi ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) 2024-yildagi 111,8 foizdan 2025-yilda 115,3 foizga va 2026-yilda 119,9 foizga oshgan. Ushbu dinamika banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari yetarliligi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. NSFRning 100 foizlik minimumdan yuqori darajada saqlanishi jalb qilingan resurslar tarkibi aktivlar tuzilmasi bilan nisbatan muvozanatli shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu natija depozit bazasining nafaqat hajm jihatidan, balki ma'lum darajada sifat jihatidan ham likvidlikni qo'llab-quvvatlaganini tasdiqlaydi.

Lahzali likvidlilik koeffitsiyenti ham 2024-yildagi 87,4 foizdan 2025-yilda 112,3 foizga va 2026-yilda 134,7 foizga yetgan. Mazkur ko'rsatkichning 47,3 foiz bandga oshishi banklarning darhol bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlar bo'yicha to'lov qobiliyati mustahkamlanganini anglatadi. Bu esa depozit bazasining kengayishi bankning joriy likvidlik imkoniyatlarini susaytirmaganini, aksincha, tez pulga aylanuvchi aktivlar va likvid tamponlar bilan uyg'un holda boshqarilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tijorat banklarida depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasi bank likvidligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Depozit bazasining 119,8 foizga o'sishi bilan birga yuqori likvidli aktivlar ulushining ortishi, LCR, NSFR va lahzali likvidlilik koeffitsiyentining yaxshilanishi bank tizimida resurslar kengayishi likvidlikning zaiflashuvi hisobiga emas, balki ehtiyotkor boshqaruv va likvid aktivlar zaxirasining mustahkamlanishi bilan birga kechganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tahlil yana bir muhim jihatni ko'rsatadi: depozit bazasida yuridik shaxslar mablag'larining ustunligi saqlanib qolayotgani resurs bazasi hajmini tez oshirish imkonini bersa-da, kelgusida konsentratsiya va chiqimlar sezgirligi bilan bog'liq likvidlik risklarini yuzaga keltirishi mumkin. Demak, mavjud ijobiy dinamika saqlanib qolishi uchun banklar depozit siyosatini faqat hajm nuqtai nazaridan o'sishga emas, balki retail depozitlar ulushini kengaytirish, muddatli omonatlar bazasini mustahkamlash, milliy valyutadagi barqaror resurslarni ko'paytirish va yirik depozitorlar ulushini muvozanatlashtirishga qaratishlari zarur. Ana shundagina depozit bazasi o'sishi bank likvidligining uzoq muddatli tayanchiga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari likvidligining barqarorligi ko'p jihatdan depozit bazasining hajm jihatidan o'sishiga emas, balki uning tarkibiy sifati va boshqaruv mexanizmlariga bog'liqdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, depozit bazasining kengayishi bank resurs salohiyatini oshiradi,



biroq ushbu o'sish likvidlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun u muddat, valyuta, mijoz segmenti va barqarorlik darajasi bo'yicha muvozanatli shakllanishi lozim. Shuningdek, likvidlikning mustahkamlanishi faqat aktivlar hajmi bilan emas, balki passiv operatsiyalar, xususan depozit siyosati samaradorligi bilan ham bevosita bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024–2026-yillarda tijorat banklari depozit bazasi sezilarli sur'atlarda oshgan va bu jarayon asosiy likvidlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi bilan bir vaqtda kechgan. Xususan, depozit bazasining kengayishi yuqori likvidli aktivlar ulushining ortishi, LCR va NSFR ko'rsatkichlarining mustahkamlanishi, shuningdek, lahzali likvidlik koeffitsiyentining yaxshilanishi bilan uyg'unlashgan. Bu holat banklarda depozit siyosati nafaqat resurs jalb qilish vositasi, balki likvidlikni qo'llab-quvvatlovchi strategik mexanizm sifatida ham faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi.

Biroq tadqiqot natijalari depozit bazasi tarkibida yuridik shaxslar mablag'lari ulushining yuqoriligi saqlanib qolayotganini ham ko'rsatdi. Mazkur holat bir tomondan resurs bazasining tez kengayishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan yirik depozitorlar konsentratsiyasi, mablag'lar chiqimi sezgirligi va qisqa muddatli likvidlik bosimi ehtimolini kuchaytirishi mumkin. Demak, depozit bazasi o'sishining o'zi yetarli emas, uning tarkibiy barqarorligi, retail segment ulushi va uzoq muddatli resurslar hissasi bank likvidligini uzoq muddatli ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, tijorat banklarida depozit siyosatini hajmga yo'naltirilgan yondashuvdan sifatga yo'naltirilgan yondashuvga o'tkazish zarur. Ya'ni banklar depozit bazasini baholashda faqat jalb qilingan mablag'lar summasiga emas, balki muddatli depozitlar ulushi, retail resurslar hissasi, yirik depozitorlar konsentratsiyasi va valyuta tarkibiga asoslangan ichki mezonlardan foydalanishlari lozim.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslar depozitlari ulushini kengaytirishga qaratilgan alohida strategiya ishlab chiqish zarur. Chunki retail depozitlar odatda yuridik shaxslar mablag'lariga nisbatan xulq-atvor jihatidan barqarorroq manba hisoblanadi. Shu maqsadda omonat mahsulotlarini segmentlash, moslashuvchan foiz mexanizmlarini joriy etish, raqamli omonat platformalarini rivojlantirish va mijozlarga qulay qayta joylashtirish instrumentlarini taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, banklarda depozit bazasining konsentratsiya riskini kamaytirish bo'yicha ichki limitlarni joriy etish lozim. Ayniqsa, bir nechta yirik korporativ depozitorlarga ortiqcha tayanish bankning likvidlik profiliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli yirik depozitlarning jami depozitlardagi maksimal ulushi bo'yicha ichki cheklovlar belgilanishi va ular muntazam monitoring qilinishi zarur.

To'rtinchidan, muddatli depozitlar ulushini oshirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish lozim. Bunda uzoqroq muddatli omonatlar uchun differensial foiz siyosati, bonus stavkalar, sodiqlik dasturlari va avtomatik prolongatsiya tizimidan foydalanish bankning barqaror fondlash bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, depozit siyosatini likvidlikni boshqarish tizimi bilan institutsional jihatdan integratsiyalash zarur. Amaliyotda depozitlar bo'yicha qarorlar marketing yoki chakana biznes bo'linmalari doirasida, likvidlik masalalari esa treasury yoki ALCO doirasida ko'rib chiqiladi. Ushbu uzilishlarni bartaraf etish uchun depozit kampaniyalari, foiz siyosati va mahsulot dizayni bo'yicha qarorlar likvidlik ko'rsatkichlariga ta'siri bilan birgalikda baholanishi kerak.

Oltinchidan, banklarda depozitlar xulq-atvori bo'yicha ichki analitik modellardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Talab qilib olinguncha va muddatli depozitlarning amaldagi saqlanish davri, foiz sezgirligi, muddatidan oldin yechib olish ehtimoli hamda segmentlar bo'yicha chiqim xavfini baholash likvidlik prognozlarining aniqligini oshiradi.

Yettinchidan, milliy valyutadagi depozitlar bazasini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida saqlab qolish lozim. Chunki milliy valyutadagi barqaror resurslar bank likvidligini valyuta nomutanosibli xavfisiz qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois banklar omonat mahsulotlarini milliy valyuta segmentida jozibador qilish, real daromadlilikni ta'minlash va inflyatsion kutilmalarni hisobga olgan foiz siyosatini yuritishlari zarur.

Sakkizinchidan, Markaziy bank va tijorat banklari darajasida depozit siyosati bilan bog'liq stress-test amaliyotini kuchaytirish lozim. Bunda yirik depozitorlar chiqimi, foiz stavkalari bo'yicha keskin raqobat, retail omonatlar oqimining sekinlashuvi va valyuta segmentidagi o'zgarishlar alohida ssenariylar sifatida modellashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tijorat banklarida depozit siyosati va depozit bazasi dinamikasi likvidlikni boshqarishning passivlar tomonidagi tayanch omili ekanini tasdiqladi. Depozit bazasi barqaror, diversifikatsiyalashgan va muddat jihatidan muvozanatli shakllangan taqdirdagina bank likvidligi uzoq muddatli va sifatli asosga ega bo'ladi. Shu bois banklar depozit siyosatini qisqa muddatli resurs jalb qilish vositasi sifatida emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv yo'nalishi sifatida yuritishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Kashyap, A. K., Rajan, R. G., & Stein, J. C. (2002). Banks as liquidity providers: An explanation for the coexistence of lending and deposit-taking. *The Journal of Finance*, 57(1), 33–73.
3. Foos, D., Norden, L., & Weber, M. (2010). Loan growth and riskiness of banks. *Journal of Banking & Finance*, 34(12), 2929–2940.
4. Ivashina, V., & Scharfstein, D. (2010). Bank lending during the financial crisis of 2008. *Journal of Financial Economics*, 97(3), 319–338.
5. Imbierowicz, B., & Rauch, C. (2014). The relationship between liquidity risk and credit risk in banks. *Journal of Banking & Finance*, 40, 242–256.
6. Vodová, P. (2011). Liquidity of Czech commercial banks and its determinants. *International Journal of Mathematical Models and Methods in Applied Sciences*, 5(6), 1060–1067.
7. Roman, A., & Sargu, A. C. (2015). The impact of bank-specific factors on the commercial banks liquidity: Empirical evidence from CEE countries. *Procedia Economics and Finance*, 20, 571–579.
8. Omonov, A. A. (2010). Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Monografiya.
9. Sattarov, O. (2010). Tijorat banklari likvidligini boshqarish. Monografiya.
10. Kurbonbekova, M. (2023). O'zbekistonda pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Avtoreferat.
11. Jumayev, N., va boshqalar. (2011). O'zbekistonda milliy valyuta tizimini rivojlantirish: muammolari va yechimlari. Toshkent: Moliya.
12. Abdullayeva, Sh. Z. (2017). Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
13. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100